Kamola Abdullayeva	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
Karimov Orif Obloqul o'g'li	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
Makulov Shuxratjon Zokirovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
Mansurova Umida Mansur qizi	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
Murodov Nozimjon Olimjonovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
Nafasova Jamila Turg'un qizi	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati ..	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafruz Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня A2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчехра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	
Malaka oshirish jarayonida ta’lim sifatini oshirish masalalari.....	1223
Amanova Durdona Kaxramonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari	1226
Berdiyeva Muhabbat Meliyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati	1229
Eshbekova Gulbahor	



STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	1233
G'afforova Xurriyat Yangiboyevna	
Kimyo fani o'rganuvchilari ongida moddalarning hosil bo'lish jarayonining mazmun-mohiyatini ularning genetikasiga asoslab tushuntirish.....	1238
Jabbarova Dilafruz Bo'riyevna	
Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training	1242
Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Qudratovna	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati.....	1246
Maxmudov Azamjon Muxtorovich	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'ldashev Shaxriyor Xusanovich	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqitirish	1254
Pirniyazova Sholpan Oteniyazovna	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
Raxmatov A'zam Ashur o'g'li	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1262
Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
Sayfudinova Nilufarxon Soyibjonovna	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
Sharipova Sarvinov Sayid qizi	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
Usmonova Mohizoda Avazjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
Xomidova Dilorom Abduraxmonovna	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
Yavkochdiyeva Dilafruz Egamqulovna	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России	1293
Суярова Айнура Ибодуллоевна	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarning bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
Kilichev Nurulla Abbosovich	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
Abdushukurova Mushtariy	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сибборд": педагогические условия.....	1310
Нумонжонova Фарангиз Комиловна	

O'QUVCHILARNING SHAXSIY KARYERASINI REJALASHTIRISH IJTIMOY- PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Raxmatova Sevara Abdulloyevna

Navoiy davlat universiteti, o'qituvchi

Sharapova Hilola Dusham qizi

Navoiy davlat universiteti, magistratura talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ijtimoiy va pedagogik muammo sifatida tadqiq etilgan bo'lib, uning optimal yechim yo'llaridan biri sifatida karyerani rejalashtirishda o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari va psixofiziologik xususiyatlarini mehnat bozorining ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bandlik, mehnat, kasb, kasbga yo'naltirish, o'quvchi-yoshlar, karyera, rejalashtirish.

Abstract: This article examines the career guidance of schoolchildren as a socio-pedagogical problem. Aligning students' professional interests and psychophysiological characteristics with labor market needs during career planning is identified as one of the optimal solutions.

Key words: employment, work, profession, career guidance, students, career, planning.

Аннотация: В статье рассматривается профессиональная ориентация школьников как социально-педагогическая проблема, и в качестве одного из оптимальных путей её решения выделяются вопросы согласования профессиональных интересов и психофизиологических особенностей учащихся с потребностями рынка труда при планировании карьеры.

Ключевые слова: занятость, труд, профессия, профориентация, учащиеся, карьера, планирование.

KIRISH

Aholi bandligini muayyan darajada barqaror ushlab turish har qanday mamlakat oldida turgan murakkab va muhim vazifalardan biridir. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan barcha mamlakatlarda bandlik sohasiga ta'sir ko'rsatish choralari qo'llash asosida bandlikni tartibga solish siyosati amalga oshirilmoqda. Mehnat qilish huquqi va bu huquqni amalga oshirish masalasi mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "...Biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi" [Mirziyoyev Sh. M., 2016:15–16]. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyulda "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son¹ qarori qabul qilingan. Belgilangan strategik vazifalar ijrosini ta'minlash, ya'ni mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag'al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimi joriy etilishi maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-4804-sonli² qarori asosida "Ishga marhamat – monomarkazlari" Davlat dasturi tashkil etilgan.

Yuqorida keltirilgan direktiv hujjatlar mamlakatimizda mehnat bozori bilan maktablarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid faoliyatni o'zaro uyg'unlikda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-3824637>

² <https://lex.uz/docs/-4945748?ONDATE=31.10.2023>



ekanligini ko'rsatmoqda. Aholi bandligini ta'minlash masalasi pedagogika va psixologiya fan sohalari bilan bir qatorda, iqtisod va sotsiologiya uchun ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Maktab o'quvchilarining kela-jakdagi kasbiy faoliyatlarini ongsiz va asossiz ravishda, qarorni esa yetarlicha anglanmagan holda qabul qilishi oqibatida o'quvchi o'z qiziqishi va qobiliyatlariga mos bo'lmagan yo'nalishni tanlashi, mehnat bozorida ortiqcha yoki yetishmaydigan mutaxassislar soni yuzaga kelishi, yoshlar orasida ishsizlik, o'z hayotidan qoniqmaslik va ijtimoiy muammolarning ko'payishi kuzatiladi. Kasb tanlash muammosi har bir shaxs oldida turgan muhim vazifa bo'lib, ushbu qadam insonning keyingi hayotini belgilab berishi mumkin. Biroq o'quvchi-yoshlarning barchasi ham birinchi urinishda to'g'ri tanlov qila olmaydi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar karyerasini rejalashtirishni ilmiy asosda tashkil etish mehnat bozorining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda muhim omil sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S. Woods, F. Patterson, B. Vill va A. Kozvar hamda K. Shnitslyayn, D. Li, J. Vays va K. Vorner karyerani rejalashtirish muammolarini tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida karyera boshqaruvining mohiyati va vazifalariga nisbatan psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratganlar [Both feet ..., 2015].

B. Aviles, L. Rassel-Chepin va S. Raybek esa maktablarda o'quvchilar karyerasini boshqarish va kasbiy maslahat berish tizimining shakllanish tarixini tadqiq etgan bo'lib, karyera bo'yicha maslahat berishning shaxsni kasbiy va intellektual rivojlanishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab bergan [Aviles B.D. et al.].

A. Dastidar va S. Sikdar yuqori darajadagi o'zlashtirishga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlar pedagogik va ilmiy faoliyat bilan bog'liq kasblarni nisbatan kam tanlashlarini aniqlaganlar [Dastidar A.G. et al., 2015: 375–394].

O'rta maktab o'quvchilarining kasb tanlash muammosi bo'yicha juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ular "kasbiy o'zini-o'zi belgilash" tushunchasiga turlicha ta'rif beradilar. Ushbu tushunchaga "Pedagogikadan qomusiy lug'at"da shunday ta'rif berilgan: "Kasbiy o'zini-o'zi belgilash – bu yoshlarning o'z kasbiy yo'lini (kasb, universitet, ish joyi tanlashi va boshq.) va kasbiy karyerasini shakllantirish" [Педагогический энцикл..., 2002].

Ilmiy tadqiqotlarda kasblar tasnifi turli shakl va ko'rinishlarda aks ettirilgan bo'lib, faoliyat sohasi bo'yicha Ye.A. Klimov tasnifida to'xtadik, ya'ni bionomik ("inson – tabiat"), texnomomik ("inson – texnika"), sotsionomik ("inson – inson"), signonomik ("inson – belgi tizimi"), artonomik ("inson – badiiy obraz") [Теория классиф...].

Kasbiy o'zini-o'zi belgilashning yana bir muhim omili – kasbiy faoliyatning intellektualizatsiya darajasidir. "Agar shaxsning intellektual va kasbiy salohiyatini qo'llash darajasi intellektual va kasbiy faoliyat darajasiga to'g'ri kelsa, shaxsning rivojlanishi uning qobiliyatiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Bu insonning turli ta'lim bosqichlariga (boshlang'ich, o'rta, oliy kasbiy) bir xil darajada taalluqlidir" [Шалавина Т.И., 2004: 98–120].

O'rta umumta'lim muassasasining vazifasi – o'quvchi-yoshlarga jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari hamda ularning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy kasbiy rejalarini tuzishlariga ko'maklashishdan iboratdir. O'smir yoshlarning kasbiy rejaları turli vaziyatlardan kelib chiqqan holda, ongli ravishda noaniq va asoslanmagan holatlarga qadar keng qamrovni o'z ichiga olishi mumkin. O'quvchilarning kasb tanlashlariga ongli ravishda yondashishlarida samarali yordam berish uchun ular uchun to'g'ri kasb tanlash qay darajada mas'uliyatli bosqich ekanligini ta'kidlash bilan chegaralanib qolmay, ularning kasbiy rejalarini samarali amalga oshirishlari uchun zarur amaliy va uslubiy yordam berish lozimdir. Bunda ikkita vazifa bajarilishi talab etiladi: birinchisi – ma'lumotlar bazasini yaratish, ikkinchisi – motivatsion asosni yaratish bo'lib, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish bilan bir qatorda kasbiy qiziqishlarining shakllanishi samaradorligini oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, kasblar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratishda nazariy fanlar katta imkoniyatlarga ega. Buning uchun ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar fan yoki ishlab chiqarishning qaysi sohalarida qo'llanilishi mumkinligi, kasb egalari uchun bu bilimlardan tashqari qanday malaka va ko'nikmalar zarur ekanligi haqida tegishli ma'lumotlar havola etiladi.

Ta'lim jarayonida muammoli, tadqiqot-izlanishli o'qitish, mustaqil ta'lim hamda amaliy mashg'ulotlarning imkoniyatlaridan foydalanish esa o'quvchilarni kasbga yo'naltirish samaradorligini yanada oshirib [Зеep Э.Ф. и др., 2005: 159], kelajakdagi karyeralarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. N. Litoiu mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishda karyera boshqaruvining ahamiyatini tahlil qilib, karyerani rejalashtirish masalasida kasbiy maslahat tizimi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini mehnat bozori hamda iqtisodiyot ehtiyojlari bilan o'zaro yaqinlashtirish imkonini beradi, degan xulosaga kelgan [Litoiu N., 2015]. N.S.

Pryajnikov karyera boshqaruvi yo'nalishiga asos qo'ygan bo'lib, u kasbga yo'naltirish metodologiyasini hamda kasbiy yo'naltirishni faollashtirish sohasidagi yondashuvlarni ishlab chiqqan [Пряжников Н. С., 2008].

V.A. Gurtov va Ye.A. Xoteeva o'quvchilar tomonidan tanlangan o'quv fanlari bilan ularning shaxsiy kasbiy rejalarining yuqori darajada uyg'unligi karyera trayektoriyasini muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi, deb yozadi [Гуртов В. А., Хотеева Е. А., 2018: 134–150]. S. Woods, F. Patterson, B. Vill va A. Kozvar bir qator

kasbiy faoliyat sohalarida karyerani rejalashtirishning o'ziga xos jihatlari ilmiy tadqiq etib, shaxsning individual xususiyatlarini RIASEC usuli (shaxs tipini aniqlash) vositasida ilmiy tadqiq etganlar. Tadqiqotchilar individual xususiyatlar shaxsning tibbiy ixtisoslikni tanlashiga ta'sir qilish darajasini aniqlaganlar [RIASEC model, 2016: 262–278].

J. Sempson va J. Makela karyerani rejalashtirish bo'yicha kasbiy maslahat berish jarayonida axborot texnologiyalaridan (veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy mobil qurilmalar) foydalanishning etik jihatlari ilmiy tahlil qilganlar. Tadqiqotchilar tahlil natijalarini uch toifaga ajratganlar:

- 1) ijtimoiy adolat;
- 2) resurslar;
- 3) xizmatlar.

Xususan, aholining turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi moliyaviy tengsizlik va raqamli savodxonlik darajasi orasi o'zaro tafovutning kattaligi tufayli karyera bo'yicha maslahat xizmatlaridan foydalanishda ijtimoiy adolatsizlik holati yuzaga kelishi aniqlangan [Sampson J.P., 2014: 134–148].

N. Gelliot va L. Grexam maktab o'quvchilarining shaxsiy karyera trayektoriyasini loyihalashi, ularni mavjud resurs va imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishlari uchun tanlov fanlari va kurslarni ongli ravishda tanlashlariga yo'naltirilishini ilmiy asoslaganlar [Galliot N. et al., 2015: 179–199].

M. Kuijpers va F. Meyers pedagoglarning o'quvchilar bilan suhbatlari mazmunini tahlil qilish asosida karyerani rejalashtirish bo'yicha kasbiy maslahat berish samaradorligi masalalarini tadqiq etib, kasbiy maslahat berish uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagoglar o'quvchilarni ko'proq jalb qilishi mumkinligi haqida xulosa qiladilar [Kuijpers M. et al., 2017: 83–96].

K. Shnitslyayn, D. Li, J. Vays va K. Vornor harbiy sohada karyera boshqaruvini erta boshlash masalalari, xususan harbiy xizmatchilarning akademik tayyorgarlikdan so'ng xizmat vazifalariga o'tish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni ilmiy tadqiq etganlar. Tadqiqot natijalariga asoslanib ta'limni rivojlantirishning yettita (ustoz-shogird, stipendiya, ilmiy tadqiqot, shaxsiy karyerani rejalashtirish, tajribaga ochiqlik, boshqa fanlar bilan hamkorlik va mas'uliyatni izlash) o'zaro bog'liq sohalaridan iborat modeli ishlab chiqilgan hamda harbiylar uchun karyeraning ilk bosqichini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlangan [Both feet ..., 2015: 372–375].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aholini mehnat bilan ta'minlashda davlatning ustuvor vazifalaridan biri – aholining, xususan o'rta umumta'lim muassasalarini bitirgan yoshlarning bandligini doimiy ravishda ta'minlash va uning tarmoqlar tarkibini takomillashtirishdan iborat. Chunki mehnat va bandlik bozorida hozirgi holat yoshlarning o'zini-o'zi kasbiy belgilashlari uchun eng noqulay sharoitlarni yuzaga keltirayotgan bo'lib, ko'p hollarda ularga taklif qilinadigan mehnat faoliyati qiziqishlari, qobiliyatlari yoki mutaxassisliklariga to'g'ri kelmasligi mumkin. Bandlik – bu mamlakat aholisining muayyan turmush darajasini ta'minlashda, har bir shaxsning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda, shaxsning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydigan o'ta muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammodir. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va mehnatning intellektuallashuvi tendensiyasining tobora oshib borayotgani bandlik masalasining hozirgi davrdagi muhim jihatlardan biridir. Intellektuallashuv jarayonida mehnatning sifat jihatlari qatorida kasb tushunchasi ham o'zgarib bormoqda.

Mehnatning intellektuallashuvini muayyan qonuniyatlar asosida rivojlanishini hisobga olsak, mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash masalalariga yangicha yondashishga ehtiyoj tug'iladi [Niyazov M.A., 2015: 85–86]. Bu esa mutaxassisdan yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni hamda malakasini oshirib borishni talab qiladi. Shuning uchun ta'limni rivojlantirish islohotlari va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida respublikamizda yoshlarning kasb-hunar kollejlari o'qishga bo'lgan qiziqishlari tobora ortib, shunga mos ravishda kollejlarni bitiruvchilar soni ham yildan-yilga ko'payib bormoqda [Raxmonova S.F., 2017: 56].

Yoshlar – “bugungi kunda hal qilinmagan muammolar ertaga butun jamiyat uchun halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan eng ta'sirchan ijtimoiy guruhlardan biridir” [Малинаускас Р.К., 2005: 134–138].

Yoshlik – bu insonning butun hayoti yo'lidagi asosiy bosqichlardan biri bo'lib, ularning kasbiy o'zini-o'zi belgilashiga hayotiy strategiyalari ta'sir qiladi. Hayot strategiyasini “ijtimoiy yo'nalishlar (muayyan ijtimoiy guruhlarga qo'shilish orqali kerakli ijtimoiy mavqega erishishga qaratilgan ma'noda), madaniy yo'nalishlar (ma'lum madaniy qarashlarni qabul qilish) va shaxsiy yo'nalishlar (hayotiy manfaat va ehtiyojlarni ifodalash nuqtayi nazaridan)” deb ta'riflash mumkin. Binobarin, hayot strategiyasi insonning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy istiqbolini belgilaydi [Социальная работа ..., 1998: 87].

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o'sish sur'atlarining band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'atlaridan ancha yuqoriligi jamiyatning demografik rivojlanish xususiyatlaridan biri bo'lib [Ахмедова М., 2013], bunda



demografik jarayonlar – globalizatsiya, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, makroiqtisodiy inqirozlar va iqtisodiy pasayishlar bilan bir qatorda – aholining mehnatda bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi [Tolametova Z.A., 2019: 28].

Davlatning an'anaviy vazifasi – aholining farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish bo'lib [Raxmonova S.F., 2017: 52–57], bunda o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishning zamonaviy talablarga javob beradigan dasturlarini ishlab chiqish va shu dasturlar asosida tadbirlarni amalga oshirish yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosini yumshatish imkonini beradi. Xorijiy davlatlarda “kasbga yo'naltirish” (“professional orientation”) atamasi mavjud emas. Xalqaro amaliyotda bu atama o'rnida “karyerani rejalashtirish” va “karyerani rivojlantirish” (career planning, vocational guidance, career development) tushunchalari qo'llaniladi. Karyerani rejalashtirish – bu insonning butun umri davomida ta'limiy va kasbiy trayektoriyasi, kelgusidagi kasbiy faoliyati, malaka oshirishi va kasbiy qayta tayyorlanish jarayonlarini rejalashtirish bo'yicha doimiy maslahat tizimi hisoblanadi [OECD, 2004].

TAHLIL VA NATIJALAR

Karyera rejasi – bu uzluksiz ta'lim va karyera o'sishi uchun yo'l xaritasi bo'lib, uni o'quvchining “bugungi” holatidan istalgan “ertangi” manziliga yo'naltirib, rivojlanish yo'lida harakatlanishga yordam beradigan shaxsiy andoza sifatida qabul qilish mumkin. Bu strategik hujjat turli davlatlarda turlicha nomlangani bilan, uning maqsadi – o'quvchida uzluksiz o'qish va malaka oshirishni rag'batlantirish, o'zida rivojlantirishi kerak bo'lgan aniq ko'nikmalar, orttirishi lozim bo'lgan tajriba va belgilangan muddatlarda erishilishi lozim bo'lgan maqsadlar aks etgan bo'ladi. “Karyera” tushunchasini shaxsning kasbiy faoliyat orqali o'zi o'zini belgilashi va e'tirof etilishini amalga oshirishi jarayoni deb tavsiflash mumkin [Raxmatova S.A., 2025].

Shaxsning kasbiy faoliyat orqali o'zi o'zini anglash jarayoni ishga joylashishdan emas, balki kasbiy faoliyat sohasini aniqlab, unda yuqori martabalariga erishish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda lavozim pog'onalarida martabaning o'sish yo'llarini rejalashtirishdan boshlanadi. Karyerani boshqarish – bu karyera bilan bog'liq qirralar va tanlovlarni qabul qilish jarayoni bo'lib, u shaxsiy yoki tashkilot boshqaruvi shaklida bo'lishi mumkin. Karyerani boshqarish unga ta'sir qilishga qaratilgan qarorlarni qabul qilish jarayonidir [Holyigitova N.X., 2025: 5].

Karyerani baholash – bu shaxsning qiziqishlari, qadriyatlari va ko'nikmalarini aniqlashga yordam beradigan turli usullardan iborat bo'lib, karyera bo'yicha maslahat markazlari, biznes-trenerlar va ishga joylashtirish agentliklari ushbu baholashni o'tkazib, shaxsga mos keladigan karyerani aniqlashga yordam beradi. Karyerani rejalashtirish esa uni rivojlantirish jarayonini boshqarish, samaradorligini nazorat qilish imkonini beradi. Buning uchun, eng avvalo, kasbga yo'naltirish metodikalari yordamida qaysi yo'nalishda karyerani rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlab olish kerak bo'ladi. Karyerani rejalashtirish kasbiy maslahatchi bilan va uning yordamida amalga oshirilishi kasbiy o'z-o'zini anglashning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi [Raxmatova S.A., Gulyamov Dj.R., 2025].

Yu.V'yalkova o'quvchini kasbga yo'naltirishda shaxsiy karyera rejasining ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni aniqlagan:

- o'ziga mos kasblar va ular bo'yicha ta'lim olish mumkin bo'lgan o'quv muassasalari haqida tasavvur hosil qilishi;
- o'zining kelajakdagi kasbiy yo'lini bosqichma-bosqich rejalashtirishi, maqsadga erishish variantlarini va muvaffaqiyatsizlik holatida harakat algoritmini oldindan o'ylab chiqishi;
- kasbiy qiziqishlarini o'zining psixofiziologik xususiyatlari bilan muvofiqlashtirishi; kasbiy faoliyatning muayyan sohasida muvaffaqiyat ehtimolini oldindan bashorat qilish va kasb tanlashda ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashi [Вьялкова Ю.].

Shaxsiy karyera rejasining ushbu jihatlari hisobga olib, aksariyat Yevropa davlatlarida Jon Xollandning kasbiy tanlov nazariyasi asosida ishlab chiqilgan RIASEC (Тест RIASEC) modeli qo'llaniladi. Ushbu model quyidagicha belgilangan:

1. **Realistik (Realistic)** – qo'l mehnati, asbob-uskunalar, mexanizmlar yoki ochiq havoda ishlash bilan bog'liq faoliyat turi bo'lib, bunday shaxslar muloqotdan ko'ra aniq amaliy harakatlarni afzal ko'radilar; masalan, fermer, quruvchi, uchuvchi.
2. **Tadqiqotchi (Investigative)** – murakkab, abstrakt muammolarni hal qilishga intiladi, ilmiy tahlil va izlanishga yo'naltirilgan; masalan, olim, tadqiqotchi, tahlilchi.
3. **Ijodkor (Artistic)** – ijod va o'zini ifoda etishni yoqtiradi, erkinlik va noan'anaviy yo'llarni afzal ko'radi; masalan, rassom, dizayner, yozuvchi.

4. **Ijtimoiy (Social)** – boshqalarga yordam berish, muloqot qilish va o'qitishni yoqtiradi, jamoada ishlashni qadrlaydi; masalan, o'qituvchi, hamshira, ijtimoiy xodim.
5. **Tadbirkor (Enterprising)** – boshqaruv, yetakchilik va maqsadga erishishga intiladi, o'z kuchiga ishonadi va tavakkalchilikka moyil bo'ladi; masalan, menejer, tadbirkor, rahbar.
6. **Tartibli (Conventional)** – tashkilot, tuzilma va intizomni qadrlaydi, barqarorlik va odatiy ishni yoqtiradi; masalan, buxgalter, administrator, kutubxonachi. A.T.Kuzyashev [2002], Ye.D.Dadiko [2020], Ye.A.Mogilyovkin [2017], G.G.Zaysev va G.V.Cherkasskaya [Управление..., 2018] kabi bir qator tadqiqotchilar o'quvchining shaxsiy karyera rejasini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik-psixologik shartlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar.

Ushbu shartlar umumlashtirilgan holda quyidagilardan iborat:

- individual yondashuv (har bir o'quvchining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish);
- ta'limning differentsiatsiyasi (o'quv materialining, shuningdek, ta'lim-tarbiya usul va shakllarining xilma-xilligi);
- o'z kuchini sinash (o'quvchilarga amaliyotda o'z kuchini sinab ko'rish imkoniyatini yaratish, ularni mustaqil ta'lim, mehnat, o'yin, badiiy, sport va ijtimoiy-tashkiliy faoliyatga jalb etish);
- kasbiy yo'nalganlik (o'quvchilarda kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini aniqlashga yo'naltirilgan munosabatni shakllantirish).

Buning uchun o'quvchining shaxsiy karyerasi axborot va motivatsion asoslarda rejalashtirilishi kerak bo'lib, ushbu shartning bajarilishi yaqin kelajakda o'quvchining shaxsiy kasbiy o'sishi boshlanishini ta'minlaydi [Гулямов Д.Р., 2014: 14–18].

XULOSA

Aholini ish bilan bandligi ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlarning unumli va qulay imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari bilan birga, respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchi-yoshlarini kasbga yo'naltirishga qaratilgan majmuaviy tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz. Mehnat va bandlik bozoridagi hozirgi holat yoshlarning o'zini-o'zi kasbiy belgilashlari uchun eng noqulay sharoitlarni yuzaga keltirmoqda, chunki ko'p hollarda ularga taklif qilinadigan mehnat faoliyati har doim ham ularning qiziqishlari, qobiliyatlari yoki mutaxassisliklariga to'g'ri kelavermaydi. Mehnatning intellektuallashuvi mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash masalalariga yangicha yondashishni talab qilmoqda. Intellektual kadrlar salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish, davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan bir qatorda, ta'lim sifatiga, kadrlarning kasbiy tayyorligiga hamda ilm-fanning ta'lim va ishlab chiqarish bilan o'zaro integratsiyasi holatiga bog'liqdir.

Ta'lim va bandlik sohasidagi innovatsiyalarning samaradorligi zamonaviy yoshlarning qadriyat olami, hayot rejalari, kelajakka bo'lgan munosabatini o'rganishga bog'liq bo'lishi mumkinligi ham ehtimoldan xoli emas. O'quvchilarda kasb tanlashga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish va uni kasbiy qiziqishga aylantirish bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarining samarali vositalaridan biri – o'quvchi shaxsiy karyerasini rejalashtirishdir. Shaxsiy karyera rejasini bosqichma-bosqich tayyorlanib, o'quvchi o'zini mutaxassis sifatida baholashi, karyeraga oid afzal hislatlarini haqqoniy tavsiflashi va kasbiy faoliyat sohasida lavozim bo'yicha xizmat pog'onalaridan ko'tarilishi uchun zarur bo'lgan hislatlarning o'zida mavjud ekanligini aniqlashiga hamda ularni muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati uchun yetarli darajagacha rivojlantirishiga yordam beradi. Shaxsiy karyera rejasini shaxsni katta qadamlar bilan maqsad sari olib boradigan yo'llarni ongli ravishda tanlashiga hamda rejalashtirilgan natijaga erishish imkonini bermaydigan samarasiz yo'llardan voz kechishiga yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3824637>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-4804-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4945748>
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (nutq). Toshkent: O'zbekiston, 2016, B. 15–16.
4. Aviles B. D., Russell-Chapin L., Rybak C. J. Role of counselors in multidisciplinary interactions in special education. Interdisciplinary Connections to Special Education: Important Aspects to Consider (Advances in Special Education), 2015, Vol. 30A, Pp. 59–79. DOI: 10.1108/S0270-40132015000030A004



5. Schnitzlein W. va boshq. Both feet in: Maintaining an academic focus during the transition from residency to a first military assignment. *Academic Psychiatry*, 2015, Vol. 39, No. 4, Pp. 372–375. DOI: 10.1007/s40596-015-0369-y
6. Dastidar A. G., Sikdar S. Occupation choices of high school and college students with special reference to teaching and research. *Policy Futures in Education*, 2015, Vol. 13, No. 3 SI, Pp. 375–394. DOI: 10.1177/1478210315569041
7. Galliot N., Graham L. J. School-based experiences as contributors to career decision-making. *Australian Educational Researcher*, 2015, Vol. 42, No. 2 SI, Pp. 179–199. DOI: 10.1007/s13384-015-0175-2
8. Kuipers M., Meijers F. Professionalising teachers in career dialogue: an effect study. *British Journal of Guidance & Counselling*, 2017, Vol. 45, No. 1, Pp. 83–96. DOI: 10.1080/03069885.2015.1121203
9. Litoiu N. Career counseling – the solution for bridging the gap between education and labour market. *Journal of Educational Sciences & Psychology*, 2015, Vol. 5, No. 1, Pp. 66–77.
10. Niyazov M. A. O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni va rivojlanishi. *Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi*, 2015, No. 3, B. 80–86.
11. OECD. Career Guidance and Public Policy: Bridging the Gap. 2004, P. 171. URL: <http://www.oecd.org/edu/innovation-education/34050171.pdf>
12. Woods S. va boshq. Personality and occupational specialty: An examination of medical specialties using Holland's RIASEC model. *Career Development International*, 2016, Vol. 21, No. 3, Pp. 262–278. DOI: 10.1108/CDI-10-2015-0130
13. Rahmonova S. F. O'zbekiston Respublikasida bandlik siyosatini amalga oshirishning huquqiy jihatlari. *Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi*, 2017, No. 8, B. 52–57.
14. Raxmatova S. A. Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. *Kasb-hunar ta'limi*, 2025-yil, No. 8, B. 244–249.
15. Raxmatova S. A., Gulyamov D. J. Kasbiy maslahat – maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning samarali vositasi sifatida. *Maktabgacha va maktab ta'limi*, 2025-yil, sentyabr, No. 9, B. 980–985.
16. Sampson J. P., Makela J. P. Ethical issues associated with information and communication technology in counseling and guidance. *International Journal for Educational and Vocational Guidance*, 2014, Vol. 14, No. 1 SI, Pp. 135–148.
17. Tolametova Z. A. Demografik jarayonlar va aholining samarali mehnatda bandligini ta'minlash. *Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi*, 2019, 7(127), B. 25–35.
18. Xolyigitova N. X. Zamonaviy ilmiy fanda kar'era tushunchasi: ta'rif, rivojlanish va boshqarish strategiyalari. *Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie*, 2025, No. 4(149), B. 3–9.
19. Ахмедова М. Особенности и перспективы обеспечения занятости населения в Республике Узбекистан. Методологические вопросы разработки стратегии долгосрочного развития. Т.: IFMR, 2013, С. 329.
20. Вялкова Ю. Карьерный план. Составляем индивидуальный план карьерного развития. <https://propostuplenie.ru/article/karemiy-plan-chto-eto-takoye-i-kak-ego-sostavit>
21. Гулямов Д. Р., Пантин Р. Система профессиональной ориентации учащихся в современных условиях. *Педагогика*, 2014, No. 3, С. 14–18.
22. Гуртов В. А., Хотеева Е. А. Планирование карьерной траектории школьников: ориентация на “хочу”, “могу” и “надо”. *Интеграция образования*, 2018, Т. 22, No. 1, С. 134–150. DOI: 10.15507/1991-9468.090.022.201801.134-150
23. Дадыко Е. Д., Кузяшев А. Н. К вопросу об индивидуальном карьерном плане и вариантах его выполнения. *Экономика и бизнес: экономика и практика*, 2020, No. 4-2(62), С. 61–64.
24. Зеер Э. Ф., Павлова А. М., Садовникова Н. О. Основы профориентологии. М.: Высшая школа, 2005, 159 с.
25. Кузяшев А. Т. ва boshq. К вопросу о методах разработки карьерного плана. *Эпоха науки*, 2020, No. 22, С. 250–254.
26. Малинаускас Р. К. Мотивация студентов разных периодов. *Социологические исследования*, 2005, No. 2, С. 134–138.
27. Могилёвкин Е. А. Карьерный рост: диагностика, технологии, тренинг. СПб.: Речь, 2017, 336 с.
28. Педагогический энциклопедический словарь / Под ред. В. М. Бим-Бада. М.: Большая Российская энциклопедия, 2002.
29. Пряжников Н. С. Профессиональное самоопределение: теория и практика. М.: Академия, 2008, 320 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.